

## ZAMONAVIY TA'LIMDA INFORMATIKANI O'QITISH TAMOYILLARI

H.Isoqova

Kosonsoy tuman 1-son kasb hunar maktabi  
informatika fani o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish asosida informatika fanini o'qitish samaradorligini oshirish, o`quv dargohlarida informatika fanini o'qitishni davr talablari darajasida amalga oshirish imkonini beradigan obyektiv shart-sharoitlarning yaratilishi, maqsad va vositalar haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** pedagogika, texnologiya, informatika, informatika fani, pedagogik texnologiyalar, davlat ta'lif standartlari.

### KIRISH

Axborotlashgan jamiyat – jamiyatning ko'pchilik a'zolari axborot, ayniqsa, uning oliy shakli bo'lmish bilimlarni ishlab chiqish, saqlash, qayta ishlash va amalga oshirish bilan band bo'lgan jamiyatdir. Axborot texnologiyasi biror ob'ekt, jarayon yoki hodisaning holati haqidagi axborotlarni to'plash, qayta ishlash va uzatishni amalga oshiruvchi jarayondir.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Ishni bunday tashkil etish axborotlar almashinuvini tezlatishdan tashqari kerakli axborotni izlash, qayta ishlash va foydalanishni osonlashtiradi. Bundan tashqari axborotning ustida bajarilayotgan ishlar sifatli bajariladi. Biror masalani kompyuterda hal qilish kerak bo'lsa, masalani dastlab 38 yechish ketma – ketligini so'z yoki grafik shaklda yoziladi, ya'ni masalaning algoritmi tuziladi. Masalaga tuzilgan algoritmni kompyuter tushunadigan ko'rsatmalar va qonun - qoidalar asosida yozish dastur deb ataladi. Zamonaviy axborot texnologiyalari – shaxsiy kompyuterlar va telekommunikatsiya vositalaridan foydalanilgan holdagi zamonaviy muloqotni o'rnatuvchi axborot texnologiyasi hisoblanadi. Texnologiya bu maxsulotni qayta ishlash, yaratish usullari majmuidir.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda bu borada katta tajriba to'planib, interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. 1996 yildan buyon mamlakatimiz ta'lif tizimi xodimlari o'rtasida interfaol metodlar va ulardan ta'lif jarayonini tashkil etishda foydalanish borasidagi nazariy va amaliy bilimlar targ'ib etib kelinmoqda.

Shu vaktgacha an'anaviy ta'linda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatib kelungan edi. Bunday usul talabalarni mustaqil fikrlash, ijodiy izlanishi va

tashabbuskorligini so‘ndirar edi.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol usullar innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib, ta’limning samaradorligini ko‘tarishga bo‘lgan qiziqish kundan kunga kuchayib bormokda. Zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilgan darslar talabalar egallayotgan bilimlarni o‘zлari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlarikeltirib chikarishga qaratilgan.

- Nega va nimani o‘qitamiz?
- Qanday o‘qitamiz?
- Qanday qilib samarali va natijali o‘qitish mumkin?

Kuzatishlarimiz shuni kursatmoqdaki, ayrim o‘qituvchilarimiz “Yangi pedagogik texnologiya talabi shu”, “Ўquvchilarni mustaqil fikrashga o‘rgatayapmiz”, “Ўquvchi faol, o‘qituvchi passiv bo‘lishi kerak”- degan bahonalarda o‘zлari darslarga tayyorgarliksiz kelmoqdalar. Ular yagivzuni mustaqil o‘qib kelishi uyga vazifaqilib topshiradilar va muammolardan osongina qutuladilar.

Aslida esa, innovatsion pedagogik texnologiya asosida dars olib boradigan o‘qituvchi-muallim tinib – tinchimasligi, o‘z ustida muntazam ishlashi, yangi adabiyotlar, metodik adabiyotlar va maqolalar tajribalar bilan tanishib borishi, ijodiy izlanishi zarur. Innovatsion pedagogik texnologiya asosida darslarda o‘qituvchi ham, talaba xam faol ishtirok etilishi talab qilinadi.

Pedagogik texnologiyaning boshqaruvchanligi shundan iboratki, bunda ta’lim jarayonini rejalashtirish, tashhis qilish, natijalash, tuzatish kiritish imkoniyatlari mavjud. Bunda ta’limdan kutilgan natijaga erishiladi, vaqt tejaladi, bu esa pedagogik texnologiyaning samaradorligi demakdir. Pedagogik texnologiyaning tasdiqlanuvchanligi — ishlangan model boshqa pedagoglar qo‘llaganda ham xuddi o‘shanday samara-natija berishi kerakligini bildiradi. Bir so‘z bilan aytganda, ta’lim jarayoniga yangicha yondashib, ijodkorlik, bunyodkorlik tadbiq etilsagina, ta’lim samarasini yangi bosqichga ko‘tariladi.

Ta’lim innovatsiyalari – ta’lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammolarni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo‘llanilib, avvalgidan anchasamarali natijani kafolatlay oladigan shakl, usul va texnologiyalar.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol usullardan foydalaniladi.

Interfaol – o‘zaro harakat qilmoq va o‘zaro bahslashish demakdir.

Informatika fanini o‘qitishda qaysi innovatsion shakl, usul vavositalarni qo‘llab kelmoqdamiz?

- Aqliy hujum;
- Kichik guruhlarda ishlash;
- Bahs — munozara.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarida qo‘llaniladigan usullar:

«Aqliy hujum», «Klaster», «Qarorlar shajarası», «3/3, 4/4, 5/5,...» metodi, «Rasmlarni to‘g‘ri joylashtir», «Videotopishmoq», «Zakovatli zukko», «Qarama-qarshi munosabat», «Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim.», «Zinamazina», «Rolli o‘yinlar», «Ishchanlik o‘yini», «Musobaqa o‘yinlari», «Sahna ko‘rinishi», «Teatrlashtirish», «Mozaika o‘yini».

### XULOSA VA MUNOZARA

Oliy ta’lim muassasalarida amalga oshirilayotgan informatika fanini o‘qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan maqsadning ijobiy natija berishi bu yo‘lda bir qator pedagogik vazifalarning bajarilishini talab etadi. Bizning fikrimizcha, ular quyidagilardan iborat:

1. Oliy ta’lim muassasalarida informatika fanini o‘qitishni davr talablari darajasida amalga oshirish imkonini beradigan ob’ektiv shart-sharoitlarning yaratilishi.
2. Informatika fani o‘qituvchilarining mustaqil bilim va pedagogik mahoratlarini oshirib borishlari uchun sharoit yaratish.
3. Informatika fani o‘qituvchilariga zamonaviy pedagogik texnologiya nazariyasi mazmuni xususida ma’lumotlar berishga erishish.
4. Informatika fani o‘qituvchilarida informatika fanini o‘qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish borasidagi ko‘nikma va malakalarni shakllantirish.
5. O‘qituvchilarda informatika fanini o‘qitishni tashkil etishga nisbatan yangicha, texnologik yondashuvni rivojlantirish.
6. Oliy ta’lim muassasalarida erishilgan informatika fanini o‘qitish samaradorligining mavjud darajasini tahlil etish.

### ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Ikromova X.Z. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari. – T.: YuNESKO, 2014.
2. Imamov E.Z., Fattaxov M. Axborot texnologiyalari. – T: “Moliya”, 2012.
3. Azizzoxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T., 2013.
4. Golish S.V. Ta’limning faol usullari: mazmuni, tanlash va amalga oshirish. Ekspress-qo‘llanma. – T.: O‘MKHT rivojlantirish instituti, 2011.